

## HUVAYDO LIRIKASIDA TALMEH SAN'ATINING O'RNI VA AHAMIYATI

<https://doi.org/10.70728/phil.v05.i02.013>

Sobirova Havasxon Azamatjon qizi  
Qo'qon davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XVIII asr o'zbek mumtoz she'riyatining yirik vakili Xo'janazar Huvaydoning badiiy mahorati shoir lirikasida talmeh san'atining qo'llanilishi misolida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** badiiy mahorat, badiiy san'at, talmeh, ifoda

### THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF THE ART OF TALMEH IN HUVAYDO LYRICS

Sobirova Havaskhon Azamatjon kizi  
Kokand State University

**Abstract:** This article presents information about the importance of the art of talmeh in the lyrics of Khojanazar Huvaydo, a prominent representative of 18th-century Uzbek classical poetry.

**Keywords:** talmeh, mysticism, classical poetry, narration, memoirs, divine love, spiritual perfection, love, symbolic meaning

Asosiy qism. Talmeh-badiiy san'at sifatida o'zbek mumtoz she'riyatida eng ko'p qo'llaniladigan badiiy tasvir vositalaridan biri hisoblanadi. Mazkur badiiy san'at shoirdan lirik kechinmani ifodlashda fikrni biror tarixiy shaxs, afsonaviy qahramon, badiiy asar qahramonlari, voqea yoki joy nomiga ishora qilish orqali ifodalashni anglatadi.

XVIII asr Qo'qon adabiy muhitining yirik vakillaridan biri Xo'janazar Huvaydo tasavvuf she'riyatining yirik vakili bo'lgani, Qo'qon madrasalarida tahsil olgani, qishlog'ida maktab ochib, uzoq vaqt maktabdorlik qilgani, kosiblik bilan ham shug'ullangani. Huvaydoga "Xo'janazar" ismining qo'yilishi otasi murid bo'lgan Ofoqxo'ja bilan bog'liqligi haqida adabiyotshunos olim A.Qayumov yozib qoldirgan. [Qayumov A, 1978: 115-116].

Huvaydo she'rlarida Yassaviy, Navoiy, So'fi Olloyor, Mashrab kabi ijodkorlarning tasavvufiy, falsafiy fikrlari va asarlarining ta'siri sezilib turadi. "She'rlari xalq orasida juda mashhur bo'lgan Huvaydo mumtoz she'riyatning barcha janrlarida ijod qilgan. Uning she'rlari vafotidan so'ng nabiralari tomonidan devon

holiga keltirilgan bo'lib, unda 351 g'azal, 28 ruboiy, 41 to'rtlik, 3 muxammas, 1 musaddas, 1 musamman, 1 mustazod, 3 masnaviy hamda axloqiy didaktik mazmundagi "Rohati dil" manzumasi kirgan" [Qayumov, 1978: 117].

Huvaydo g'azallarida talmeh san'ati alohida ahamiyatga molikdir. Talmeh badiiy san'atiga adabiyotshunos olimlar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan. Jumladan, "Talmeh arabcha- "chaqmoq chaqilishi", "ishora qilish", "biror narsa tomonga yengil nazar tashlash" degan ma'nolarni bildiradi. Talmeh san'ati o'zbek mumtoz adabiyotida alohida o'rin tutadi. Sharq she'riyatining ko'plab namoyondalari, xususan, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Muqimiy kabi ulug' shoirlar o'z asarlarida talmehdan unumli foydalanganlar. Bu badiiy san'at turi orqali ular nafaqat asarning badiiy qimmatini oshirganlar, balki tarixiy va ma'daniy merosni ham keying avlodlarga yetkazishga muvaffaq bo'lganlar. Talmeh san'ati orqali shoirlar o'z fikrlarini teran va ta'sirchan ifodalash imkoniyatiga ega bo'lganlar" degan fikrni keltiradi. [Xakimova, 2025: 390].

Huvaydoning "Nigoro" matlasi bilan boshlanuvchi g'azalning 7-baytida tadqiqotchi fikrlari asosli ekanligini ko'ramiz:

Sulaymon taxtini naylay, netay Jamshid jomini,

Huvaydoyi g'aribing bo'lsa gar ko'yingda darboning.

Mazkur baytda "Sulaymon" payg'ambar hamda "Jamshid" kabi afsonaviy qahramonlar nomiga ishora qilish bilan talmeh san'ati yuzaga kelgan. Shoir mazkur tasavvufiy baytni izohlash uchun Sulaymon payg'ambar bilan bog'liq ma'lumotlarni bilish zarur. Sulaymonga Alloh tomonidan shamoldan ham tezyurar taxt hamda bu olamdagi barcha narsalar ustidan hukmronlik berilgan. Jamshid esa sirli bir jom yasattirgan edi. Sulaymon tarixda jamiki ins-u jin, hayvonlar va parrandalar olamiga podshohlik qilgan, qushlar tilini tushungan. Shamollar ham uning ixtiyorida bo'lib, Sulaymon farmoniga ko'ra, u xohlagan joyda esardi. Sulaymonga berilgan mo'jizalardan biri mis koni edi, deb rivoyat qilinadi: payg'ambar izmidagi jinlar o'sha xohlagan narsasini yasab berishar ekan. Jinlarning Sulaymonga qasrlar bunyod etgani, dengiz tubidan dur-u javohirlar olib chiqib bergani naql etiladi. Jamshid esa Eronda hukmronlik qilgan peshdodiylar sulolasining to'rtinchi va eng buyuk hukmdori. Shoh Tahmurasdan so'ng 700 yil podshohlik qilgan Jamshid Istaxr shahrini bunyod etib, mamlakatda behad farovonlik vujudga keltirgani aytiladi. Shoir baytda ana shu ikki ulug' shaxs nomini keltirish bilan "Men g'arib oshig'ing Sening ko'yingda (Allohning ishqida) darbon(eshik qo'riqchisi) bo'lsam, Sulaymonning ulug' taxti ham, Jamshidning aql bovar qilmas (odamlarning taqdirini ko'rsatadigan sehrli jom) jomi ham menga kerak emas" deya yorga bo'lgan ishqini ifodalaydi.

Shoir lirikasida ishqiy-falsafiy qarashlar asosiy o'rinni egallagani jihatidan o'quvchiga Navoiy g'azallarini ham eslatadi. Masalan: "Nigorim, oy yuzingga xo'b yarashur donayi xoling" g'azali 5- baytida:

Chu ishq bozorida, jono, chiroying raxtini yozsang,  
Ko'rub Yusuf, Zulayxo bo'lg'usi oldingda dalloling.

Yorning go'zalligidan u ishq bozoriga kirib chiroyini ko'rsatsa, go'zallikda tengsiz bo'lgan Yusuf hamda unga oshiq bo'lgan Zulayxo yorning dalloli bo'ladi deya ijodkor ma'shuqani maqtayapti. Bu maqto'v majoziy maqto'v ekanligini yoddan chiqarmaslik zarur.

"Zohido, savm-u salot ettim deyub kob urma lof" nomli g'azalining 4- baytida shoirning so'fiyona qarashlariga amin bo'lamiz:

Behud-u mastona yurmishman o'zimni bilmayin,  
Kimni ko'rsam Xizr deb, ilgin tutib qildim tavof.

Shoir Xizr alayhissalom nomini keltirish bilan birga yorning ishqida qanchalik behud bo'lganini aytmoqchi. Ijodkor she'rlarida tasavvufiy unsurlar hamda nafsni jilovlash va dunyodan o'zini uzoq tutish bosh g'oyalardan biri. Dunyo lazzatining insonni baxtli eta olmasligiga ishongan shoir Allohga, abadiy baxtga erishmoq uchun inson o'zligidan kechmog'i kerakligini anglaydi.

"Tila" radifli g'azalining 7- hamda 8- baytlarida bu fikrlarning yaqqol misolini ko'rishimiz mumkin:

La'li maqsad har qayu tog'din topilmas, istasang,  
Ur riyozat metinin ko'hi Badaxshondin tila.

Sen qimmatbaho toshni maqsad qilib, istasang, u har qaysi tog'dan topilavermaydi. Bunga riyozat, mashaqqat bilan erishiladi, ya'ni shunday oliy maqsad qilginki, u ko'hi Badaxshon bo'lsin. Shoir yuqoridagi baytda bir tomondan insonlarga maqsadni shunchaki qilmaslikni va uning yo'li mashaqqatlarga to'la bo'lsa ham oxiri ganjdan iboratligini uqtiradi. Shoir keying baytda fikrini yana ham oydinlashtirgan:

Xoja Nazrig'a sirg'a qo'ydim Huvaydoni laqab,  
Qil g'aribi mustamandni shahri Chimyondin tila.

Mazkur baytda Xoja Nazar tarixiy shaxslar hamda Chimyon kabi qadimiy joy nomlarini keltirgan. Bayt mazmunidan kelib chiqadiki, shoir o'zining Xoja Nazar ismiga yana bir Huvaydo nomli taxallusni qo'shib qo'yganini va uni ya'ni g'aribi mustamandni ko'hi Badaxshon kabi Chimyon shahridan qidirib topasan deya ta'kidlaydi. Tasavvufiy tomondan esa shoir Allohning jamoliga erishish ham har bandaning qo'lidan kelmaydi, faqatgina haqiqiy mashaqqat chekib, toatda bo'lgan bandalargina bu maqomga erishadi degan g'oyani ilgari surgan.

Huvaydoning boshqa g'azallarida ham ilohiy ishqdan mast bo'lgan oshiqning holatini ko'ramiz. Masalan, "Hajr sahrosida qoldim o'tdi mandin oftob" nomli g'azalining 2- baytida shunday deyilgan:

Shashqator oqti ko'zimdin ko'z yoshim daryo bo'lub,  
Dajlayu Jayhun, Firot oldidadur misli hubob.

Oshiq mashuqasining dardida shunday ko'z yoshi to'kdiki, u daryo bo'lib oqishidan Dajla, Jayhun hamda Firot daryolari uning ko'z yoshlari oldida hech narsa emas. Ushbu baytda talmeh san'atidan tashqari mubolag'a san'ati ham go'zal ifodalangan.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan shuni xulosa qilish mumkinki, Huvaydo g'azallarida talmeh san'ati shoirning badiiy dunyoqarashida markaziy o'rinlardan birini egallaydi. U tarixiy shaxslar, joy nomlari, voqea yoki asarga ishora qilib, she'r mazmunini chuqurlashtiradi, o'quvchini keng madaniy xotira maydoniga olib kiradi. Talmeh san'ati Huvaydo ijodining tasavvufiy ruhini mustahkamlaydi, oshiqlikning majoziy ko'rinishini ma'naviy-ruhiy darajaga ko'taradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Hayitov A. O'zbek mumtoz poetikasi. - T.: Toshkent nashriyoti, 2012. - B. 225.
2. Abdullayev H. O'zbek adabiyoti tarixi. - T.: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi nashriyot- matbaa birlashmasi, 2020. - B. 154.
3. Huvaydo. Tanlangan she'rlar. - T.: O'zSSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1961. - B. 99.
4. Xakimova O. Badiiy san'atlarda talmeh san'atining qo'llanishi. // Journal of science-innovative research in Uzbekistan. Volume 3, issue 01, 2025. January ISSN 2992- 8869. <https://share.google/BTe3eoZ5KB4w1LhxO>
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. - T.: Toshkent, 2000-2005. <https://share.google/2g3FpYvaTa4CCIrZ9>
6. Qayumov P. O'zbek adabiyoti tarixi. - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 1978. 5-jild. - B. 272.